

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DINIY BAG'RIKENGLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinif
o'qituvchisi*

Rahimova Marhabo Bahodirovna

ADPI Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 201-guruh talabalari

Dadamirzayeva Xanifaxon Saydullo qizi

Isroilova Sug'diyona Bekmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashimiz, o'zga din vakillariga ehtimom ko'rsatib, ularga so'zda va amalda yaxshilik qilish kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *diniy qadriyatlar, dunyoqarashini shakllantirish, diniy bag'rikenglik, tolerantlik, diniy qarashlari*

Annotation: *This article discusses the formation of universal human values, such as educating elementary school students in the spirit of religious tolerance, showing respect to representatives of other religions, and doing good to them in word and deed.*

Key words: *religious values, worldview formation, religious tolerance, tolerance, religious views.*

KIRISH

Inson tafakkuri va e'tiqodi u tarbiya olgan oiladagi an'analar asosida shakllanadi. Vaqt o'tishi bilan bunga o'qish, ish, ijtimoiy faoliyat va boshqa tashqi omillar qo'shiladi. Har qanday inson umri davomida hayotning turli sohalarini qamrab oladigan u yoki bu diniy urf-odat hamda an'analarga duch keladi. Shunday qilib, u oilaviy muhitdanoq diniy qadriyatlarni o'zlashtira boshlaydi.

Din tushunchasi tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Dinga jamiyat dunyoqarashini shakllantiruvchi omillardan biri hamda xalq ma'naviy, madaniy va axloqiy merosining bir qismi sifatida qaralsa, uning jamiyat va har bir inson hayotida yuksak axloq va ma'naviyatning namoyon bo'lishi o'laroq muhim o'rin tutishini anglash mumkin. Bag'rikenglik eng go'zal insoniy fazilatlardan bo'lib, biror-bir millat yoki dinga mansubligidan qat'iy nazar barchaga birdek yaxshi munosabatda bo'lish, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, ezgu maqsad yo'lida birlashish kabi yuksak axloqlarning yuzaga chiqishida namoyon bo'ladi. Diniy bag'rikenglik haqida so'z yuritilganda esa musulmon olamida sodir bo'lgan uzoq va yaqin o'tmish voqealari mazkur omilning naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatib beradi.

Diniy bag'rikenglik turli diniy e'tiqotdagi kishilarning olijanob g'oya va niyyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida hizmat qilishini

anglatadigan tushuncha. Hozirgi vaqtda bu tushuncha nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikni nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida diniy bag'rikenglik bilan bog'liq qadriyatlarni targ'ib qiluvchi g'oyalari keng yoritib berilgan. Buyuk alloma, moturidiya aqidaviy yo'nalishi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning asarlarida bayon etilgan bag'rikenglik g'oyalari bunga misol bo'la oladi. Jumladan, Moturidiy Qur'oni Karim oyatlarining tafsiriga bag'ishlangan, islom olamida juda keng tanilgan "Ta'vilot ahli sunna" asarida "Haj" surasi 40-oyat tafsirida: "Cherkov va sinagoyalarni vayron etish man etiladi.

Natija va mulohazalar: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bu turdagi asarlardan foydalangan holda diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashimiz o'zga din vakillariga ehtirom ko'rsatib, ularga so'zda va amalda yaxshilik qilish kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishimiz mumkin. Tabiiyki diniylik dunyoviylikni inkor qilmaydi, u bilan ba'zan yonma-yon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zaro yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Dunyoviylik, ya'ni shu moddiy hayotni rivojlantirishga yo'nalganlik diniylikning ham maqsadlari bilan mos tushadi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin, deganda dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashni nazarda tutamiz.

O'quvchilarda tolerantlik tarbiyasi orqali o'z xatti-harakatlariga mas'ullik hissi tarkib toptiriladi. Xuddi shu davrda o'quvchilarning diniy bag'rikenglik (tolerantlik) ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlar kengayadi. O'quvchilarda bu davrga kelib ob'ektiv voqelikni o'rganishga bo'lgan intilish kuchayib boradi. Ular atrofdagi hodisalar, odamlarning xatti-harakatlarini tobora chuqurroq tahlil qilib, idrok eta boradilar. Bunda o'quvchilarga turli didaktik vositalar, ta'limiy o'yinlar, she'r, ko'rgazmalar, qo'shiqlar, musiqalar, sahna asarlari, kinofilmlar yordam beradi. Shubhasiz, bu yosh davrida o'quvchilarda diniy bag'rikenglik, adolat, vijdon erkinligi, tolerantlik tushunchalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ham barqarorlashib boradi. Ularda diniy bag'rikenglik tolerantlikka oid dastlabki ko'nikmalarining paydo bo'lishi barobarida o'quvchilar o'z xulq-atvorini ongli tarzda boshqara boshlaydilar. Bunday xulq-atvor ularning o'quv jarayonida o'zlarini ijobiy tomondan namoyon qilishlariga undaydi. Shuning uchun ham ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilarda bag'rikenglik tolerantlik tushunchalarini shakllantirish muhim pedagogik qimmatga ega bo'lgan ijtimoiy zaruriyatdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisida diniy bag'rikenglik tuyg'ularini uyg'otishni bosqichlari mavjud bo'lib ular quidagilarni tashkil qiladi :

Birinchi bosqichi bu ijtimoiy muhitga moslashishga, boshqa odamlar bilan muloqot qilishga yordam beradigan sifat sifatida bag'rikenglik zarurligini anglash; bag'rikenglik mazmuni haqidagi eng oddiy g'oyalarni shakllantirish.

Ikkinchi bosqichda o'z-o'zini tanqidiy baholash, mulohaza yuritish asosida murosasiz fazilatlardan xalos bo'lish zarurati namoyon bo'ladi. Taqlid qilish mumkin bo'lgan modelni, bag'rikenglik idealini topish istagi bor.

Uchinchi bosqichda o'z qadr-qimmatini anglash mavjud bo'lib, bu odamga o'zini bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishga va sherikning xattiharakatlarida o'zini tasdiqlashga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda diniy bag'rikenglik tushunchasini, etiqod, din bo'yicha ta'limotlarni o'qituvchisi tomonidan o'quvchilarga oddiy va tushunarli tarzda yetkazish kerak. 7–10 yoshda bolaning farqlash hissi juda faol bo'lgani bois, unga to'g'ri axborotlarni berishni nazorat qilmoq lozim. Chunki shu yoshda axborotlarni anglash qobiliyati shakllana boshlaydi. O'quvchilar yaqinda o'qishni o'rgangani, qaysi saytga kirgani va qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini oxirigacha tushunib yetmaydilar. Bunday vaqtlarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijtimoiy tarmoqdagi turli xil saytlardan ko'ra, ulug' bobolarimiz qoldirgan manbalaridan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati beqiyos bo'lib, u shaxsning ma'naviyatini yuqori darajaga olib chiqishi haqida kerakli ma'lumotlarni yetkazish zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib ta'kidlashimiz mumkinki, O'z diniy qarashlari haqligiga qattiq ishongan, e'tiqod qo'ygan, boshqacha diniy qarashlar bilan erkin mushohadaga kira olish malakasiga ega bo'lgan insonlarga diniy bag'rikenglik yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston xalqlarining diniy bag'rikenglik an'analari o'zining ham milliy, ham umumbashariy mohiyati bilan purviqordir. Mamlakatimizda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar diniy bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan. Dinning axloqiy tamoyillari insonga bunday hodisalarni norma sifatida qabul qilishga imkon bermaydi. Dinning tasalli beruvchi xususiyati-insonning psixologik barqarorligini saqlaydi, suitsidning oldini oladi, psixikani globallashuvning barcha turdagi inqirozlari va ijtimoiy kataklizmlari tufayli yuzaga keladigan muqarrar

umumiy manfaatlar uchun birlashtiradi, umumiy qadriyatlar va jamiyat uyg'unligi ruhida tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G'. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. №6. 12–18–b.
2. Burxanova G. O'quvchilar siyosiy madaniyati va diniy bag'rikenglik: "Milliy istiqlol g'oyasi: mil-latlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni o'quvchi va talaba o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2016 yil 26–27 may. – Samarqand, 2016.
3. Betti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. 2012 –164 b.
4. Dehkanova M, Tarbiya darslik
5. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika. Darslik. – T.: "Noshir". 2011
6. Toshtemirova C. (2019). Comments on the study of collectivization and its consequences in Uzbekistan. Tafakkur ziyosi, 1 (3), 78-80.